LOYIHAVIY FAOLIYAT ORQALI BOSHLANG‘ICH SINF O'QUVCHILARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH.

Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna – Farg‘ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent zn.ortiqova@gmail.com ,ID 0000-0002-2797-0512

Toshtemirova Gulsanamoy Ilhomjon qizi – Farg‘ona davlat universiteti Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1- bosqich magistranti email:gulsanamtoshtemirova789@gmail.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativligini rivojlantirishda loyihaviy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Loyihaviy faoliyatning o‘quvchilar mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashishi, yangi g‘oyalar ishlab chiqishi va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida loyihaviy topshiriqlardan foydalanish yo‘llari va ularni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: loyihaviy faoliyat, kreativlik, ijodiy fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, tabiiy fanlar, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyat, innovatsion ta’lim.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические возможности проектной деятельности в развитии креативности учащихся начальных классов. Анализируется значение проектной деятельности в формировании самостоятельного мышления, творческого подхода к решению проблемных ситуаций, способности генерировать новые идеи и применять знания на практике. Также представлены способы использования проектных заданий при обучении естественным наукам и рекомендации по их внедрению в образовательный процесс.

Ключевые слова: проектная деятельность, креативность, творческое

мышление, начальное образование, естественные науки, самостоятельное мышление, проблемная ситуация, инновационное образование.

Abstract: This article examines the pedagogical potential of project-based learning in developing creativity among primary school pupils. It analyzes the role of project activities in fostering independent thinking, creative problem-solving, the generation of new ideas, and the practical application of knowledge. The article also presents ways to integrate project-based tasks into natural science lessons and offers recommendations for their effective implementation in primary education.

Keywords: project-based learning, creativity, creative thinking, primary education, natural sciences, independent thinking, problem-solving, innovative education.

KIRISH Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘quvchilarga tayyor bilimlarni berish bilan bir qatorda, ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va hayotiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishni ham talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning kreativligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan shu davrda bolaning atrof-muhitga munosabati, bilishga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil qaror qabul qilishi va yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati shakllanib boradi. Kreativlik o‘quvchining mavjud bilimlardan foydalanib, yangicha fikrlashi, noodatiy yechimlarni taklif qilishi va o‘z g‘oyalarini amaliyotda sinab ko‘rishida namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ushbu sifatni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonini faqat nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan cheklab qo‘ymasdan, ularni izlanish, kuzatish, tajriba o‘tkazish va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirish lozim. Shu nuqtayi nazardan, loyihaviy faoliyat boshlang‘ich ta’limda kreativlikni rivojlantirishning samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Loyihaviy faoliyat davomida o‘quvchilar muayyan muammoni aniqlaydi, uni hal qilish yo‘llarini izlaydi, zarur ma’lumotlarni to‘playdi, o‘z g‘oyalarini amaliyotda sinab ko‘radi va yakuniy natijani taqdim etadi.

Bu jarayonda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi, hamkorlikda ishlashi va o‘z faoliyatini rejalashtirish ko‘nikmalari rivojlanadi. Loyihaviy faoliyat va kreativlik tushunchalarining ilmiy-pedagogik mazmuni hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kreativligini rivojlantirish, avvalo, ularning mustaqil fikrlashi, muammolarga turlicha yondashishi va yangi g‘oyalarni ilgari surishi uchun zarur sharoit yaratishni taqozo etadi. Kreativlik o‘quvchining faqat yangi g‘oyalar yaratishi bilan cheklanmay, balki mavjud bilimlardan foydalanib, muammolarga noodatiy yechimlar topishi, o‘z fikrini asoslab berishi va amaliy natijaga erishishida ham namoyon bo‘ladi.Kreativlikni rivojlantirishda o‘quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari atrof-muhitdagi hodisalarga qiziqish bilan qaraydi, ko‘plab savollar beradi va o‘z kuzatishlari asosida xulosalar chiqarishga intiladi. Ta’lim jarayonida ushbu tabiiy qiziqishni qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Buning uchun ularga tayyor ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, mustaqil izlanish, tajriba o‘tkazish va o‘z g‘oyalarini sinab ko‘rish imkoniyatini berish lozim.Loyihaviy faoliyat ana shunday imkoniyatlarni yaratadigan ta’limiy yondashuvlardan biridir. Ushbu faoliyatda o‘quvchilar muayyan maqsad asosida ish olib boradi, muammoni aniqlaydi, uni hal qilish yo‘llarini rejalashtiradi, kerakli ma’lumotlarni to‘playdi va yakuniy natijani taqdim etadi. Jarayon davomida o‘quvchi bilimlarni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki ularni izlab topuvchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qo‘llovchi faol ishtirokchiga aylanadi.

Adabiyotlar tahlili Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativligini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda kreativlik o‘quvchining yangi g‘oyalarni ilgari surishi, muammolarga noodatiy yechimlar topishi, mustaqil fikrlashi va o‘z bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llay olishi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Loyihaviy faoliyat esa ushbu sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan

ta’limiy yondashuvlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Jumayeva Habiba G‘aforovna boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim yondashuvlari va “4K” modelining ahamiyatini yoritadi. Muallifning fikricha, o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish, ularning mustaqil fikrlashi, o‘z g‘oyalarini ifodalashi va muammolarga turli yechimlar topishiga imkon yaratish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Ushbu qarashlardan kelib chiqib, loyihaviy faoliyatni boshlang‘ich ta’lim jarayonida qo‘llash o‘quvchilarning kreativligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki loyiha ustida ishlash davomida o‘quvchilar muammoni aniqlash, yangi g‘oyalarni ilgari surish, o‘z fikrlarini asoslash va amaliy natijaga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.1 Xudoynazarov E.M., Xudayberganov G‘.Q., Avezov D.S., Tilovova M.D. va Otajanov I.A. boshlang‘ich ta’limda kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratganlar. Mualliflarning ilmiy-metodik qarashlari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda ularni tayyor ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan cheklab qo‘ymasdan, mustaqil izlanish, kuzatish, taqqoslash va xulosa chiqarishga yo‘naltirish zarur. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitishda loyihaviy faoliyatdan foydalanish bolalarning atrof-muhit hodisalarini o‘rganishi, amaliy muammolarga yechim izlashi va o‘z ijodiy g‘oyalarini namoyon etishiga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilarga o‘simliklarni parvarishlash, suvni tejash yoki maktab hududini ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha loyiha topshiriqlarini berish orqali ularning kreativ fikrlashini rivojlantirish mumkin. 2 Potters, van Schijndel, Jak va Voogt bolalar kreativligini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarida topshiriqlarning xususiyatlari va ularni bajarish sharoitlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadilar. Mualliflar tahlil qilgan ilmiy ishlar bolalarning ijodiy fikrlashi topshiriqning mazmuni, murakkabligi va o‘quvchiga

1 . Jumayeva H.G‘. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili ta’limida “4K” modeli asosida kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish // Pedagogik mahorat. — 2024. — №

2 Xudoynazarov E.M., Xudayberganov G‘.Q., Avezov D.S., Tilovova M.D., Otajanov I.A. Boshlang‘ich ta’limda kreativ fikrlash: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Bookmany Print, 2024. — 208 b.

beriladigan mustaqillik darajasi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. 3 Ushbu qarashlardan kelib chiqib, boshlang‘ich sinflarda loyihaviy faoliyatni tashkil etishda o‘quvchilarga mustaqil izlanish, turli yechimlarni taklif qilish va o‘z fikrlarini asoslash imkoniyatini yaratish zarur. Pangestu, Malagola, Robbaniyah va Rahajeng boshlang‘ich maktablarda tabiiy fanlarni o‘qitishda loyihaga asoslangan ta’limning o‘quvchilar natijalari, kreativligi va motivatsiyasiga ta’sirini o‘rganganlar. Tadqiqot natijalarida loyihaviy ta’lim o‘quvchilarning kreativligini rivojlantirish va fanlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishda samarali yondashuv bo‘lishi mumkinligi ta’kidlangan. 4 Mazkur ilmiy qarash tabiiy fanlar darslarida o‘quvchilarni kuzatish, tajriba o‘tkazish, ma’lumotlarni taqqoslash va xulosalar chiqarishga yo‘naltiruvchi loyihalardan foydalanish muhimligini ko‘rsatadi. Musa va Kamal boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlarni o‘qitishda loyihaviy ta’lim modelining o‘quvchilarning kreativligini mustahkamlashdagi imkoniyatlarini o‘rganganlar. Mualliflar loyihaviy faoliyatni o‘quvchilarning amaliy ishlar bajarishi, mustaqil izlanishi va ijodiy fikrlashini namoyon etishi bilan bog‘laydilar. 5 Ushbu yondashuv tabiiy fanlar mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga atrof-muhitdagi muammolarni o‘rganish, ularning sabablarini aniqlash va amaliy yechimlar taklif qilish imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA Loyihaviy faoliyat orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativligini rivojlantirish masalasini o‘rganish natijasida mazkur yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy izlanishi va muammolarga noodatiy yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Loyihaviy faoliyat jarayonida o‘quvchilar tayyor bilimlarni

3 . Potters, O. T. A. va boshqalar. Two Decades of Research on Children's Creativity Development During Primary Education in Relation to Task Characteristics. Educational Research Review, 2023

4 Pangestu, K. va boshqalar. The Influence of Project Based Learning on Learning Outcomes, Creativity and Student Motivation in Science Learning at Elementary Schools. Jurnal Prima Edukasia, 2024, 12(2), 194–203.

5 Muzaini, M. C. va boshqalar. Effectiveness of STEAM-Integrated Project-Based Learning to Improve Creative and Collaborative Thinking Skills of Elementary School Students. Al-Adzka, 2024, 14(1), 106–120.

o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki o‘z g‘oyalarini ilgari surish, ularni amaliyotda sinab ko‘rish va natijalarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.Ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitishda loyihaviy faoliyatdan foydalanish o‘quvchilarning tabiat hodisalariga bo‘lgan qiziqishini oshirish, kuzatish, taqqoslash, tajriba o‘tkazish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, “O‘simliklarning o‘sishi uchun nimalar zarur?”, “Suvni qanday tejash mumkin?” va “Maktab hududini qanday ko‘kalamzorlashtirish mumkin?” kabi loyihalar orqali o‘quvchilar mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini taklif qilishga o‘rganadilar.Loyihaviy topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilarning mustaqil qaror qabul qilishi, guruhda hamkorlik qilishi va o‘z fikrlarini erkin bayon etishi uchun sharoit yaratiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi tayyor javoblarni beruvchi emas, balki o‘quvchilarning izlanishlarini yo‘naltiruvchi va ularni qo‘llab-quvvatlovchi vazifasini bajaradi. Natijada o‘quvchilarda tashabbuskorlik, ijodkorlik, mas’uliyat va hamkorlik kabi sifatlarni rivojlantirish uchun imkoniyat paydo bo‘ladi Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, loyihaviy faoliyatni samarali tashkil etishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va individual imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Loyihalar sodda, tushunarli, hayotiy vaziyatlarga bog‘langan va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shuningdek, o‘quvchilarning faqat yakuniy natijasi emas, balki loyiha davomida ko‘rsatgan mustaqilligi, yangi g‘oyalar ishlab chiqishi va muammolarni hal etishga intilishi ham baholanishi zarur.

XULOSA loyihaviy faoliyat orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativligini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu faoliyat o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, muammoli vaziyatlarni hal etishi va yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Loyihaviy faoliyat jarayonida o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash, izlanish olib borish, tajribalar o‘tkazish va erishilgan natijalarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.Ayniqsa, tabiiy fanlar darslarida loyihaviy faoliyatdan

foydalanish o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan qiziqishini oshirish, atrof-muhitni kuzatish va kundalik hayotdagi muammolarga ijodiy yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, o‘simliklarni parvarishlash, suvni tejash va tabiatni muhofaza qilishga oid loyihalar orqali o‘quvchilarda nafaqat kreativ fikrlash, balki ekologik madaniyat ham rivojlanadi.Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida loyihaviy faoliyatni muntazam tashkil etish, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olish va ularni mustaqil izlanishga yo‘naltirish zarur. O‘qituvchi tomonidan yaratilgan ijodiy muhit, hayotiy topshiriqlar va amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga yordam beradi.Demak, loyihaviy faoliyatni boshlang‘ich ta’limda, xususan, tabiiy fanlarni o‘qitishda samarali qo‘llash o‘quvchilarning kreativligini rivojlantirish, mustaqil fikrlaydigan va yangilik yaratishga intiladigan shaxslarni tarbiyalash uchun muhim pedagogik imkoniyat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jumayeva H.G‘. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili ta’limida “4K” modeli asosida kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish // Pedagogik mahorat. — 2024. — № 2. Xudoynazarov E.M., Xudayberganov G‘.Q., Avezov D.S., Tilovova M.D., Otajanov I.A. Boshlang‘ich ta’limda kreativ fikrlash: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Bookmany Print, 2024. — 208 b.3. Potters, O. T. A. va boshqalar. Two Decades of Research on Children's Creativity Development During Primary Education in Relation to Task Characteristics. Educational Research Review, 2023 4.Pangestu, K. va boshqalar. The Influence of Project Based Learning on Learning Outcomes, Creativity and Student Motivation in Science Learning at Elementary Schools. Jurnal Prima Edukasia, 2024, 12(2), 194–203. 5. Muzaini, M. C. va boshqalar. Effectiveness of STEAM-Integrated Project-Based Learning to Improve Creative and Collaborative Thinking Skills of Elementary School Students. Al-Adzka, 2024, 14(1), 106–120.